
XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING 59-SESSİYASI BO‘LIB O‘TDI.

Unda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, sektor rahbarlari, tuman hokimining o‘rinbosarlari, tashkilot rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Sessiyani Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi A.Djurabayev olib bordi.

Kun tartibida quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi:

1. Toshloq tuman hokimi 1-sektor rahbari A.Djurabayevning 1-sektor hududida 2022 yilning 1-, 2-choragi davomida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti.
2. Toshloq tumani prokurori, 2-sektor rahbari A.Xudoyberganovning 2-sektor hududida 2022 yilning 1-choragi davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti.
3. Toshloq tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, 3-sektor rahbari F.Bektoshevning 3-sektor hududida 2022 yilning 1-choragi davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti.
4. Toshloq tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i, 4-sektor rahbari D.Tashmatovning 4 - sektor hududida 2022 yilning 1-choragi davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti.
5. Toshloq tumanida “Obod mahalla” dasturiga kiritilgan hududlar hamda yo‘llarni ta‘mirlash uchun qoldirilgan zaxira mablag‘lari hisobidan mintaqaviy yo‘llar (ichki ko‘chalar) manzilli ro‘yxati bo‘yicha tumanda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.
6. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining Toshloq tuman bo‘limi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi “2020-2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli farmoniga asosan tumanda olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida.
7. Tuman xududidagi mahalla fuqarolar yig‘inilarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-sonli farmoniga asosan obodonlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, hududlarning sanitariya xolatlarini ahvoli to‘g‘risida deputatlik guruhining axboroti to‘g‘risida.
8. Toshloq tuman byudjetining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida.

Yuqoridagi masalalar yuzasidan soha rahbarlarini hisoboti va axborotlari tinglandi. Sessiya yakunida kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

2022-06-30 11:22:46